

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022
IYUN
№41



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.



+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00



www.tadqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
8-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-8**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-8**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 41-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июнь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 29 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохода Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги хузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Norqulova Manzura Usmon qizi TOHIR MALIKNING “NOMUS” ASARIDAGI DINIY SO’ZLARNING LEKSIK MA’NOLARI	7
2. Ochilova Nodira Bahriiddin qizi BOSHLANG’ICH SINFLARDA ADABIY TUSHUNCHALAR VA BADIY VOSITALAR USTIDA ISHLASH	9
3. Шукрова Мехринисо Пўлатовна АДАБИЁТ ТАЪЛИМИДА МУСТАҚИЛ РАВИШДА ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШ АСОСЛАРИ	11
4. Sulaymonova Izolatxon Qambarovna, Abdurahimova Gulhayo Ibrohimjon qizi ADABIYOT DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLARNING ROLI	13
5. Tulibayeva Shaxlo, Matkarimova Gulnoza USMON AZIMNING TRIPТИХ SHAKLIDAGI HIKOYALARI MAZMUNI	15
6. Сарсенбаева Асем Амангелдиевна К ВОПРОСУ СПЕЦИФИКИ ПЕРЕВОДА ПОЭТИЧЕСКОГО ТЕКСТА	17
7. Satayeva Nargiza Abdullayevna, Nurullayeva Nafosat Xikmatillayevna ABDULLA QAHHORNING OBRAZ YARATISH MAHORATI	19
8. Temirova Dilafruz Umedovna, Hotanova Feruza Abdurahmonovna ADABIYOT – TARBIYA VOSITASI	21
9. To’rayeva Sohiba Saidaxmedovna O’QUVCHILARNING SAVODXONLIK DARAJASINI OSHIRISHDA DIKTANT TURLARINING AHAMIYATI	23
10. Ahmedova Vaziraxon Asqarovna, Abduashimova Munisa DRAMATIK ASARDA QAHRAMOLAR NUTQI	25
11. Abibayeva Nigora Muxtorjonovna ADABIYOT DARSLARIDA MUAMMOLI TA’LIM USULIDAN FOYDALANISH	27



АДАБИЁТ

TOHIR MALIKNING “NOMUS” ASARIDAGI DINIY SO’ZLARNING LEKSIK MA’NOLARI

Norqulova Manzura Usmon qizi

Terdu II Lingvistik: O’zbek tili II kurs magistranti

Telefon:+998915803467

norqulovamanzura4@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada “O’zbekiston Xalq yozuvchisi” Tohir Malikning “Nomus” kabi asaridagi diniy matnlar lingvistik metod asosida tahlilga tortilgan. Diniy matnlardagi so’zlar uslubiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: diniy birliklar, diniy matn, diniy izofa, diniy-leksik birliklarning lingvo-uslubiy xususiyatlari

Yozuvchi mazkur asarini qadim rivoyatlar asosida yozgan, o’zining ta’biri bilan aytganda, “otonalari va elning duosini olib yashayotgan pokdomon singillar”ga bag’ishlangan tarixiy hikoyatdir. Hikoyatning hajmi qisqa bo’lsa-da, undagi diniy so’zlar hajmi yozuvchining boshqa asarlariga qaraganda ancha ko’pdir. Hikoyatda islom dini farzlari bilan bog’liq so’zlar ko’pchilikni tashkil qiladi. Barchamizga ayonki, islom dini besh farzni o’z ichiga oladi : Iymon 2.Namoz 3.Ro’za 4.Zakot 5.Haj

I.Iymon –arabcha “ishonch, e’tiqod” ma’nosini anglatib, islom dinida Allohga, uning farishtalari, kitoblari, payg’ambarlari, qiyomat kuni, taqdir va o’lgandan keyin tirilishga ishonish. Iymon moturidiylik ta’limotiga ko’ra, 2 narsaning butunligi – e’tiqod (dinga ichdan chuqur ishonish), iqror (so’zda buni tan olish)dan iborat deb hisoblanadi. Islomda iymon talablari “arkon al-imon”(e’tiqod asoslari) sanaladi.

Iymon asoslariga u aqlimizga xoh sig’sin, xoh sig’masin, baribir ularga shak- shubhasiz e’tiqod qilish talab qilinadi. Iymon talablari, ya’ni aqidalar islomning diniy dunyoqarash asoslarini tashkil etadi. Din va huquq ilk islom davrida ajratilmagani tufayli “iymon” muammosi ilohiyotchilarni ham, fiqhshunoslarni ham band etgan. Iymon tushunchasi islomda muhim va bahsli masalalardan biri hisoblanib, uni VIII asr boshidan turli ilohiyot va diniy-huquqiy maktab vakillari turlicha talqin qilgan.

Hozirgi kunda iymon so’zi vijdonlilik, halollik, soflik, Vatanni sevish ma’nolarida ham ishlataladi. “Nomus” hikoyatida iymon so’zi bilan bog’liq quyidagi tushunchalarga duch kelamiz:

“–Akangizning bunday demaklari aqllariga ham, iymonlariga ham xos emasdir” (40-b);

“–Kalima qaytara-qaytara, qo’rquvni yenggan bo’lib, yigitning yuziga qo’l yubordi”(3-b)

Aynan “kalimai shahodat” -(guvohlik kalimasi) islom dinidagi besh asosiy arkonning birinchisidir. Unga ko’ra “Allohdan o’zga iloh yo’q, Muhammaduning rasulidir” –degan kalimani til bilan aytib, dil bilan tasdiq etish shart qilingan. Lekin ba’zi islomiy aqida va oqimlar bunga xilof ravishda iymonning sharti 2 ta emas, 3 ta deb, ibodat va amallarni to’la bajarishni –iymonning uchinchi sharti sanashadi. Bu bilan ular ko’pchilik musulmonlarni kofirlar safiga qo’shib qo’yishadi. Vaholanki iymon bilan kufr e’tiqodiy masalalar turiga, amaliy ibodatlar yoki gunoh va jinoyatlar alohida boshqa masalalar turiga oiddir. Iymon bilan birga amal ham bo’lsa, nur ustiga nur. Amal qilmasa yoki gunoh ishlarni qilsa (moturidiylik aqidasiiga ko’ra) kofir bo’lmaydi, balki gunohdor bo’ladi. Hikoyatdan olingan quyidagi parchada esa iymon so’zi ibora ko’rinishida (“iymonikomil”) qo’llangan: “Siz tomonlarda “yanga” atalsa, bizda “kelin aya” derlar, qayin iningizni onalik mehri bilan tarbiya etmog’ingizga iymonim komil”, “Siz iymoningiz eshigini berkitibsiz” (48-b).

Namoz –(fors, arabcha –salot) islom ko’rsatmalari bo’yicha bajariladigan maxsus ibodat turi; islomdagi besh rukndan biri. Namoz musulmonlarga me’roj kechasi farz qilingan birinchi



ibodatdir. Qur'on oyatlari va hadisi shariflarda namozning ahamiyati, fazilatlari haqida gapirilib, uni mukamal ado etishga tashviqot qilinadi. Namoz o'qish uchun namozxonning badan va kiyimlari hamda o'qish joyi pok bo'lishi shart. Namoz Makkadagi Ka'ba ibodatxonasiga qarab o'qiladi. Uni o'qishda maxsus to'shama – joynamozdan foydalaniladi.“Nomus” hikoyatida namoz farzi bilan bog'liq so'zlar ham talaygina.“

Nafl ro'za –ro'zaning turlaridan biri bo'lib, dushanba, payshanba kunlarida, shavvol oyida olti kun tutilgan ro'zadir.44

“Shayx bir dona xurmo bilan qanoatlanib, nafl ro'zaga niyat qildi.”

Ramazon –ro'za tutiladigan oylardan biri.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Islom ensiklopediyasi. /Zuhriddin Husniddinov tahriri ostida. Toshkent. 2007.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2007-yil. –607 bet.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jild. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2007-yil. –509 bet.
4. Tohir Malik. Nomus. –T.: Davr press NMU. 2016. –183 bet.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA ADABIY TUSHUNCHALAR VA BADIY VOSITALAR USTIDA ISHLASH

Ochilova Nodira Bahriiddin qizi,
Navoiy viloyati, Xatirchi tumani
35-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon: 998 99 123 06 61

Annotatsiya: Maqlada boshlang'ich adabiy ta'lilda badiiy asar ustida ishlash orqali o'quvchilarda adabiy tushunchalarni shakllantirish va badiiy til vositalari haqida tasavvur hosil qilish haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Obrazlar, asar g'oyasi, o'qish fani, dastur, kompetensiya, ertak, lug'at ishi, ko'chma ma'no, maqol, topishmoq, she'r, jonlantirish, o'xshatishlar.

O'quvchilarda adabiy tushunchalarni shakllantirish va ularga badiiy til vositalar haqida ma'lumot berish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar adabiy tushun-chalarni o'rganish natijasida badiiy adabiyot san'atning bir turi ekanligi, uning hayot bilan aloqadorligini bilib oladilar.

Boshlang'ich adabiy ta'lilda badiiy asarni o'rganish natijasida o'quvchilarda tug'iladigan histuyg'ularga suyanib ish ko'rildi. Bu esa o'quvchilarda asar muallifi, obraz, g'oya, adabiy tur, syujet kabi adabiy tushunchalarni elementlar tarzda shakllantirishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida asar tahlilida badiiy til vositalari - sifatlash, o'xshatish, jonlantirish, mubolag'a va adabiy janr turlari - ertak, hikoya, masal, she'r, doston, maqol, topishmoq kabilalar bilan amaliy ravishda tanishtiriladi.

Badiiy asarda g'oyaviy mazmun obrazlar orqali ifodalanadi. Obrazlar esa so'zlar yordamida yaratiladi. So'z adabiyotda badiiy obrazni yaratish qurolidir. Asarda tasvirlangan hayotiy voqyea-hodisalarini obrazli aks ettirishda badiiy til asosiy vositadir. Shuning uchun ham badiiy asar yuzasidan olib boriladigan tahlil ishlari har bir obrazni, umuman badiiy asar mazmunini ochishda katta ahamiyatga ega. Badiiy asar tilini tahlil qilish orqali o'quvchilarda o'z ona tiliga muhabbat hissi, badiiy asarni ongli o'qish ko'nikmasi o'stiriladi, asar g'oyasini chuqur idrok etishga zamin yaratiladi, o'quvchilar nutqi rivojlantiriladi. O'qish fani o'quv dasturida o'quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid adabiy-nutqiy kompetensiya va badiiy asarni tahlil qilish kompetensiya elementlari belgilangan. 3-sinf o'qish fanidan badiiy asarni tahlil qilish kompetensiysi quyidagicha: o'rga- nilgan asarlarning nomi, mazmuni va qahramonlarini ajrata oladi va o'qituvchi yordamida ularga baho bera oladi; o'qilgan asar mazmuniga doir savol va topshi-riqlarga javob bera oladi; matndagi so'z va so'z birikmalarining ma'nolarini izohlay oladi; xalq og'zaki ijodi namunalari va boshqa asarlarni bir-biridan farqlay oladi; asar mazmunidan ta'sirlana oladi; asar qahramonlariga munosabat bildira oladi.

Ma'lumki, bolalar ertak tinglash va o'qishga juda qiziqadilar. Bolalar tomonidan ertakning qiziqib o'qilishining sabablaridan biri, ertak tilining ta'sirhanligi, o'tkir syujetliligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertak o'qib bo'lingach, lug'at ishi o'tkazish, badiiy tili ustida ishlashga alohida ahamiyat berish zarur. O'quvchilarni ertakda ishlataligan o'xshatish, jonlantirish va mubolag'alarini izohlab berish, matndan toptirish, qayta hikoyalashda ulardan nutqlarida foydalanishga o'rgatish lozim.

Masalan, 3-sinfda "Halollik" ertagini o'rganishda asar ustida ishlashni quyidagi amalga oshirish mumkin. O'quvchilarga ertak mazmuni animatsiya orqali taqdim etiladi. Kadr ortidan ertak matni o'qilib, mazmuni tushuntiriladi va o'quvchilarga hozirgi kunda tilimizda qo'llanilmaydigan eskirgan so'zlar ma'nosi, ishlatalishi haqida tushuncha beriladi, ya'ni lug'at ishi o'tkaziladi.

Lug'at ishi: omoch – hayvonga qo'shib, yer haydaladigan temir asbob; **tanob** – yer o'lchov birligi; **qo'sh ho'kiz** – omochga qo'shilgan bir juft ho'kiz.

O'quvchilarga ertakdagagi "bir qalin og'aynisidan" jumlasidagi "qalin" so'zi "juda qadrdon", "do'st" ko'chma ma'noda qo'llanganini tushuntirish lozim.

Maqol va topishmoq janrida ham ko'chma ma'noli so'zlar ko'p qo'llanadi. Misol uchun "Yurt boshiga ish tushsa, Er yigit hozir" maqolida "boshiga" so'zi metafora yo'li bilan ma'nosi ko'chgan, o'quvchilarga uning ma'nosi qanday usul bilan ko'chganligi aytilmaydi, faqat boshqa ma'noda qo'llanganligi, o'z ma'nosi bilan taqqoslangan holda o'quvchilarga o'rgatiladi.

She'rlarda badiiy tasvir vositalari keng ishlataladi. Masalan, 3-sinfda Qudrat Hikmatning



“Ayamajiz” she’rida “Bo’ralar qor kapalak”, “Bog’lar sokin mizg’ishar, Misoli oq kapalak”, “Muz oynalar sovuq yeb” misralarda o‘xshatish, jonlantirish; “Saxiy ona tabiat”, “quchog’ida havo sof” misralarda metafora; “Ayamajiz izg’iydi, Ko‘chalarda tutoqib, Shox-shabbani tortqilar, Yalmog’izdek yutoqib” kabi misralarda jonlantirish va o‘xshatishlar qo‘llangan. Bu badiiy til vositalari ustida ishlaganda quyidagicha savol-topshiriqlardan foydalanish mumkin: 1. Shoir qorni nimaga o‘xshatadi? (oq kapalakka). 2. Ayamajizni nimaga o‘xshatadi? (Yalmog’izga). 3. “Muz oynalar sovuq yeb” misrasini qanday tushunasiz? Oyna sovuq qotadimi?

Tarixiy asarlarda ham ta’sirchan, tasviriy-bo‘yoqdor so‘zlar ko‘p uchraydi. Jumladan, “Bobur va kabutar” hikoyasida “hazrat”, “a’yonlar”, “oliv hazrat” so‘zları qo‘llangan. Asar matnida qadimiy davr bilan bog’liq qo‘shimchalarining qo‘llanilishi ham asarga joziba bag’ishlaydi. Masalan: “Kabutar ne deydur?” kabi. badiiy asar o‘qib bo‘lingach, badiiy til vositalari ustida ishlanadi.

Boshlang’ich sinflarning o‘qish darslarida adabiy tushunchalar va badiiy vositalar ustida ishslash o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini o‘stirishga va nutq boyligini oshi- rishga, jonlantirish, o‘xshatish, mubolag’a kabi adabiy tushunchalar yuzasidan dastlabki tasavvur hosil qilishiga yordam beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O‘qish fanidan o‘quv dasturi. (1-4-sinf) RTM. 2017-yil.
2. Qunduzxon Husanboveva. Mufallib Hazratqulov. Shahlo Jamoldinova. “Boshlang’ch sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi”. Toshkent. 2020-y.
3. O‘qish kitobi. (3-sinf) 2016-yil.



АДАБИЁТ ТАЪЛИМИДА МУСТАҚИЛ РАВИШДА ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШ АСОСЛАРИ

Шукурова Мехринисо Пўлатовна

Қарши шаҳар 8-умумий ўрта таълим мактаби

она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси

Телефон: +998912243876

uktam_62@mail.ru

Аннотация: мазкур мақолада адабиёт таълимида ўқувчиларнинг мустақил равишида фикрлашга ўргатиш асосида билим олишларини таъминлаш ва билим олишга мотивация уйғотишида таълим мақсадини тўғри белгилаш юзасидан фикр мулоҳазалар билдирилган. Мақола муаллифи адабиёт таълимида ўқувчиларни мустақил равишида фикрлашга ўргатишдаги мақсадни кўйилиши ва ушбу мақсад умумий ўрта таълим мактаблари адабиёт таълимида ўз самарасининг беришини кўрсатиб ўтилган.

Таянч сўзлар: таълим, ўқитиш, мустақил равишида фикрлаш, таълим ва китоб ўқишини ривожлантириш, узлуксиз таълим, адабиёт таълими.

Адабиёт таълимда ўқувчиларни мустақил равишида фикрлашга ўргатишнинг ўзига хос хусусиятлари мавжуд. Адабий таълимнинг ўзига хос хусусиятлари шундан иборатки, унда ҳар бир ўқувчи ўз олдига қўйилган муаммони тегишли мақсад ва вазифаларни белгилаган ҳолда билими ва ҳаётий тажрибасига таяниб турли воситалар ёрдамида, интеллектуал имконияти даражасида мустақил равишида ҳал қиласи. Ўрганилаётган бадиий матн, ундаги қаҳрамонлар, тасвирланган бирор ҳодиса ёки вазият борасида ҳар бир ўқувчиларнинг асар ҳамда дарсларидан фарқ қилувчи ўз холосаси бўлади. Адабиёт дарсларида ўқувчиларни мустақил мулоҳаза юритишига ўргатиш шуниси билан алоҳида аҳамият касб этади.

Адабиёт дарсларида ўқувчиларни мустақил мулоҳаза юритишига ўргатиш шуниси билан алоҳида аҳамият касб этади. Ўқувчи шахсида фикр кишисини тарбиялаш мақсадида ташкил қилинган адабиёт дарсларида тарбияланувчи ўқитувчидан маълум вақт ичиди бажарилиши лозим бўлган топшириқни олади. Масалан, 8-синфда Алишер Навоий ва

Нодиранинг умр баёни ҳамда ғазаллари ўрганилиб, ўқувчилар шоирлар услубини фарқлайдиган бўлғанларидан сўнг, уларга ўрганилган икки ғазалнинг мақтаъсини олиб қўйилган ҳолда тақдим этилади. Ўқувидан уларнинг қай бири Навоий қаламига, қайсиниси Нодира ижодига мансуб эканини аниқлаш талаб қилинади.

Унда ўқувчи асарнинг мазмуни, услуби ва унга сингдирилган муаллиф шахсиятига асосланиши кераклиги айтилади. Бу топшириқни ўз муддатида бажариш учун ўқувчи вақтини тўғри тақсимлаши ва қиладиган ишларини пухта режалаштириши керак. Шунинг ўзиёқ ўқувчини мустақил равишида ўйлашга мажбур қиласи. Ҳар иккала ғазални ўқиб, уларнинг моҳиятига етиб, улардан асар қаҳрамони ҳиссиётини туйиб шу асосда муаллифини аниқлаш ўқувчини ақлий зўриқтириб, ҳақиқатни топишга эришадиган тадқиқотчи ҳолатига солади.

Ўқувчини фикрлаш жараёнида ҳодисанинг ўзаро сабабий боғланишини таъминлайдиган умумий алоқани, асосий моҳиятни топишга ўргатиш мустақил равишида фикрлашни шакллантиришда муҳим аҳамиятга эга. Маълумки, ҳар бир инсонга хос бўлган ривожланиш даражаси ҳамиша муҳит билан мутаносиб бўлади. Шунинг учун ҳам адабиёт ўқитувчиси ўқувчилар фикрлашининг ташки муҳит билан алоқасини аниқлаши ва мувофиқлаштириши, унинг йўналишларини бошқара билиши керак. Ижодий фаолият ва мустақил фикрнинг юзага келишида тасаввур муҳим ўрин тутади. Бирорта янги нарсани яратиш учун одам аввал хаёлан уни тасаввур қиласи.

Инсон ҳаёт йўсинидаги ҳар қандай ўзгариш аввал унинг тасаввурода амалга ошади. Тасаввур ёрдамида одам ўз фаолияти билан турмуш шароитини ўзгартиришга, уни ўзининг моддий ва руҳий эҳтиёжларига мувофиқлаштиришга уринади. Инсон таълим жараёнида ҳам худди меҳнат фаолиятидаги сингари жуда камдан кам ҳолатларда фақат хотирасининг қувватига таянади. Ўзига хос янгича шароитларда фаолият кўрсатиш жараёнида кўпинча инсон у ёки бу даражада ижодий ҳаракат қиласи, яъни, тасаввурига суюнади.



Вужудга келган маънавий талабни қондириш мақсадида мустақил билим олишга киришади. Лекин, ҳамма ҳам шундай эмас. Мустақил ишлашга одатланмаган болаларнинг катта қисми умуман ўқимасликни афзал билиб қолишади. Адабий таълим методикаси илмининг бугунги талаблари бўйича ўқувчи уёки бу хилдаги бадиий асарни ўқиши, тушуниш орқали мустақил фикр юритиш, мулоҳаза қилишга кундан кун ўрганиб боради. Адабий таълим жараённида ўқувчиларда мутолаа маданиятини ривожлантиришда тафаккури мустақиллигини таъминлаш ва ривожлантириш учун ўқитувчи ўқувчиларни дарсликда берилган тушунча-ю холосаларнинг тўғрилигини текшириш ва далиллашга, бу йўлда энг қулай усул ва методлардан фойдаланишни, ҳар бир нарса-ҳодиса юзасидан мустақил фикр юритишни, вазиятга ижодий ёндашишни, бирорвларга ёкиш-ёқмаслигидан қатъи назар ўз фикрини айтишни ўргатиши керак, деган холосага келдик. Муаллим тарбияланувчиларни мантиқий фикр юритиш усуллари билан танишириб бориши; қолипда фикрлашга йўл қўймаслиги, ижодий изланишга етаклаши; ўқувчиларнинг индивидуал хусусиятларини ҳисобга олиб, ақлий имкониятларни юқори даражада ишга сола билиши; ҳар бир ўқувчи олдига ўзига хос муаммо қўя олиши ва уни ечишга йўналтириши; уларни учрайдиган қийинчиликларнинг олдини олиш ва енгишга одатлантириши зарур. Ўқувчи тафаккурининг мустақиллигини таъминлашни истаган педагог ўз фанидан ташқари психологик билимларни пухта эгаллаши мақсадга мувофиқдир. Ўқувчилардаги танқидий тафаккур ва мулоҳазанинг етарли даражада тараққий этмаганлиги, эстетик дид ҳамда маданий савиянинг пастлиги бадиий асар қимматини юзаки баҳолашга олиб келади. Асар тўғрисида чукӯр фикр юритмасдан туриб, унинг қимматини аниқлашга шошилиш ҳоллари асл турмуш билан бадиий асар ўртасидаги фарқни англай олмаслиқдан келиб чиқади.

Адабий таълим методикаси илмининг бугунги талаблари бўйича ўқувчи уёки бу хилдаги бадиий асарни ўқиши, тушуниш орқали мустақил фикр юритиш, мулоҳаза қилишга кундан кун ўрганиб боради. Бу ўз-ўзидан амалга ошмайди, албатта. Бола асар устида ишлашни билиши керак. Шунда унинг мустақил нуқтаи назари шаклланади. Ўз-ўзидан маълумки, бу фазилат ўзгаларнинг ташқаридан берган маслаҳати маҳсули эмас, ўспириннинг шахсий фикри, мустақил ўйлаши ва бир қарорга келишининг натижаси бўлади. Ўқитувчи ўқувчиларининг тортичоқ бўлишига, фикрини очиқ айтмай, дилида сақлаб қолишига йўл қўймаслиги керак. “Болада шахсий фикр бўлмаслиги, мустақил мулоҳазадан узоклиги, тайёр жумлаларни тўтидай такрорлашидан қўрқиш керак”, дейди педагог олимларимиз.

Тафаккур мустақиллигининг ўсиши ўқитиладиган фанлар, ўқитувчи ва ота-онанинг таъсирига ҳам боғлиқ. Ўқитувчи мактабда, ота-она оилада болага унинг исми, уйи, шаҳрининг номи иштирокида эртаклар тузишга ўргатиши жуда фойдали. Бу билан улар болада ҳаётий тажриба бўлишига кўмаклашадилар, унга ўз йўлинин аниқлаб, буюмлар дунёсида ўз ўрнини белгилаб олишга ёрдамлашадилар. Демак, ўзликни англаш учун ўзини хис қилиш имкониятига эга бўлиш керак.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Глобал таълим. Ўқитувчилар учун қўлланма. – Т.: ХТВ, 2004. -153 б.
2. Зуннунов А. ва бошқ. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: “Ўқитувчи”, 1992. –333 б.
3. Йўлдошев Қ ва бошқ. Адабиёт ўқитиш методикаси. Дастурий қўлланма. –Т.: РТМ, 1994. –49 б.
4. Каримова В. М., Суннатова Р. Мустақил фикрлаш. Академик лицейлар ва касб-хунар коллежлари учун ўқув қўлланма. – Т.: «Шарқ» нашриёт-матбаа концерни, 2000. – 112 б.



ADABIYOT DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLARNING ROLI

Sulaymonova Izolatxon Qambarovna
Abdurahimova Gulhayo Ibrohimjon qizi

Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani
24-maktabning ona tili va adabiyot fani o’qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada o’quvchilarini badiiy adabiyotga mehrini oshirish, adabiyot darslarini samarali tashkil etishda interfaol metodlardan foydalanish haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: adabiyot fani, asar, metod, ijod, badiiy adabiyot, dars, ta’lim, fan.

Adabiyot fanini o‘qitish boshqa fanlarni o‘qitishdan anchayin keskin farq qiladi. Adabiyot san‘at turlari orasida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan so‘z san‘atidir. Badiiy adabiyot hayotni boshqa san‘at turlariga qaraganda keng va to‘laqonli aks ettiradi. Oddiygina bir voqelik adabiyotga ko‘chsa, kishi hissiy dunyosini bezovta qilmay qo‘ymaydi. Chunki ijodkor o‘zi tuygan hissiyotini kitobxon qalbiga ham yuqtira oladi.

Aslida adabiyot o‘qitishning **bosh yo‘nalishi** ta’limning turli bosqichlarida o‘quvchilar ongiga badiiy asarning mo‘jizakor ta’sir kuchini amaliy jihatdan ta’minlashga qaratilgan. Maktabgacha tarbiya muassasalari, boshlang‘ich ta’lim, umumiyo‘rta ta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar ta’limidagi adabiy ta’limning uzviyligi va uzlusizligining natijasi o‘sib kelayotgan yosh avlod qalbida go‘zallikka bo‘lgan ijobjiy va ijodiy munosabatni shakllantirishdan, ularga badiiy asarga - kitobga bo‘lgan mehr va muhabbatni o‘stirishdan, bularning zamirida esa undagi badiiy-estetik didni takomillashtirishdan iborat.

Zamon taraqqiyoti o‘sib borayotgan davrda adabiyot darslarida ham badiiy muhit yaratishimiz, ya’ni innovatsion yondashuvni kuchaytirishimiz zarur. O‘quvchi o‘qigan asarini yoki yod olgan she’rini mazmunan tushunishi, his qila olishi, adabiyot va hayot bevosita bog‘liqligini anglashi zarur. Adabiyot darslarini samarali tashkil etishda quyidagi holatlarga e’tibor berishimiz maqsadga muvofiqdir:

- asarlar o‘quvchilarda qiziqish hosil qilishi va esda qolishi uchun ular asosida miniaturalar yoki fotolavhalar bilan ishslash;

- badiiy yoki she’riy asarlar tahlili uchun turli jadvallar yoki boshqotirmalar ishlab chiqish;

Mumtoz asarlarni o‘rganish hozirgi kunda o‘quvchilar orasida jiddiy va muammoli vaziyatga aylangan. O‘rganilayotgan asarda lug‘atlar chet tili fanlari singari turli usullar bilan o‘rgatilsa, ya’ni lug‘at diktanlar, krossvordlar bilan amalga oshirilsa mumtoz adabiyotdagি lug‘at so‘zlar o‘quvchi tomonidan yaxshi o‘zlashtirilishida samara berar edi.

Badiiy adabiyotning inson ruhiyati, hatto uning shaxsiyatining shakllanishi va rivojidagi o‘rni beqiyosdir. Agar zamondoshimiz S.Sayyid aytganidek: “Bola diliga nedir yuqtirsa, adabiyot muallimi o‘z vazifasini ado etgan, adabiyot darslarining samarasini ta’minlangan bo‘ladi”. Ta’limning turli bosqichlarida bolaning yosh xususiyatlarigina emas, hatto asarning janri, uslubi ham uni o‘qitish, o‘rgatishda o‘ziga xos yondashuvlar bo‘lishini taqozo etadi.

Qaysi bir asarni o‘rganishda sharh va izohlarning o‘rni kattaroq bo‘lishi, boshqa bir asarni o‘rganishdan oldin ifodali o‘qish maqsadga muvofiq bo‘lishi mumkin. Qay holatlarda biografik metod o‘rinli bo‘lsa, qaysi o‘rinlarda estetik tahvilning o‘rnini bosadigan biror usul bo‘lmasligi ham tabiiydir. Quyida adabiyot fanini o‘qitishda samara beradigan bir qancha metodlarni misol tariqasida keltiramiz:

Qiyoslash metodi. Adabiyot fanini o‘qitishda asarlarda doimo ijobjiy va salbiy qahramonlarga duch kelamiz. Shuning uchun bunday qahramonlarga o‘quvchilar bilan birgalikda baho berish kerak. Qadimiy, mumtoz asarlarni yangi zamonaviy ruhdagi asarlar va ulardagi zamonani taqqoslash bilan, she’riy va nasriy asarlar o‘rtasidagi tafovutni farqlash, solishtirish kabi usullar bilan ham o‘quvchilar qalbidan joy olishimiz mumkin. Masalan, 7-sinf “Adabiyot” darsligida Shuhratning “Mardlik afsonasi” balladasi she’riy yo‘lda yaratilgan. Mirkarim Osimning “To‘maris” afsonasi bilan Shuhratning “Mardlik afsonasi” o‘zaro qiyoslanib, o‘xhash va farqli tomonlari yuzasidan bahs-munozara qilinsa, mavzu yuzasidan ma’lumotlar o‘quvchi xotirasida uzoq vaqt saqlanadi.

Har bir adabiyot darsida o‘qituvchi qaysi mavzuni o‘tayotgan bo‘lsa aynan o‘sha ijodkor yoki asardan shu kungi dars uchun **shior so‘z** tanlashi darsning mazmunini ochib beruvchi kalit so‘z



hisoblanadi. Masalan, 6-sinf “Adabiyot” darsligida Erkin Vohidovning “O‘zbegim” qasidasini o‘rganish darsiga

“*Sen na zardusht, sen na buddiy, senga na otash, sanam,
Odamiylik dini birla Toza iymon, o‘zbegin*”.

kabi misralarni mavzudan kelib chiqib shior sifatida tanlashimiz mumkin. O‘quvchilar shior orqali ham asar nomini eslab qolishlari mumkin.

Suhbat metodi adabiyot fanini o‘qitish metodlaridan biri bo‘lib, unda darsning qurilishi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi adabiy muloqotga asoslanadi va o‘qituvchi-o‘quvchi o‘rtasida savol-javoblar, ayrim paytlarda munozaralar yetakchilik qiladi.

Izlanish metodi. Bu metod tadqiqot metodiga o‘xshab ketsa-da, undan farqli tomonlari ham bor. O‘xshash jihat: har ikkala metod o‘quvchilarning ijodiy izlanishlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Farqli tomoni: tadqiqot metodini qo‘llashda o‘qituvchi boshlovchi, yo‘naltiruvchi va darsni yakunlovchi sifatida harakat qilsa, izlanish metodida vazifalarni topshiruvchi va tekshirib, baholab, o‘quvchilarni rag‘batlantiruvchi sifatida ko‘rinadi. Izlanish metodi adabiy konsepsiylar, uchrashuvlar, nazariy darslarda o‘quvchilarning mustaqil ijodiy ishlarini tayyorlashda (referat, taqriz, adabiy ijodiy ishlarda) ko‘proq foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, zamонавиј ruhdagi noan’анавиј darslarni tashkil etish o‘qituvchini doimiy izlanishga, yangilik bilan ishslashga, o‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi munosabatni takomillashtirish, o‘quvchilarni qiziqishlari bo‘yicha o‘qishga yordam beradi. Natijada darslarga, badiiy adabiyotga bo‘lgan qiziqishi ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Q.Husanboyeva. Adabiyot-ma’naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. T: 2009.
2. B.To‘xliyev. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T; 2010.
3. www.tadqiqot.uz
4. www.ziyouz.com



USMON AZIMNING TRIPTIX SHAKLIDAGI HIKOYALARI MAZMUNI

Tulibayeva Shaxlo

Xorazm viloyati Gurlan tumani
9-umumi o'rta talim maktabining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Matkarimova Gulnoza

Xorazm viloyati Bog'ot tumani
33-umumi o'rta ta'lif maktabning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Usmon Azimning triptix shaklidagi hikoyalarining mazmuni haqida mulohaza qilinadi. Shuningdek adib hikoyalarida mehr-muhabbat, sog'inch, armon, iztirob, san'atga oshuftalik, o'tgan umr sarhisobi obrazlar orqali bayon qilinishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Asror, Muyassar, triptix, mazmun, mehr-muhabbat, shakl, g'oya, janr, san'at, obraz, muallif, qahramon, tartib-intizom.

“Har bir yozuvchining uslubi uning qalbida nima borligiga shu darajada chambarchas bog‘liqki, tajribali kishi avtor qalbini uning uslubidan bilishi, shaklni o‘rganish orqali mazmunning eng teran mag‘ziga kirib borishi mumkin”. Usmon Azimning triptix shaklidagi hikoyalari uslubi ham ijodkor badiiy mahoratining yuksakligidan dalolat beradi: “topishningmi, yo‘qotishningmi, yohud sog‘inchningmi – armonli bir sururning bo‘yi havoni tutgan, bu hol ko‘ngillarni mayda-chuyda tashvishlardan birdam ozod etib, odamlar unutib yuborayozgan hurlikkami-ey, cheksizlikkami-ey – allatovur ko‘ngil yo‘liga chorlayotgani tobora ayon bo‘lib boradi”.

Topish, yo‘qotish, sog‘inch hislari – Asror, Muyassar, Jamilaga nisbatan mengzalgan. Asror o‘zligini Boqibek chizgan kuz suratida topdi. Jamila bir dasta gul tasvirida o‘zining tanish gullarini ko‘rdi va uni yanada intizorlik bilan sog‘inib qidira boshladi. Muyassar esa o‘zining mavjudligini faqatgina tartib-intizomda his qilardi. San’at asari tufayli ishxonada tartib yo‘qoldi. Kundalik majlisi o‘tkazilmay qoldi. Shu sababdan ham “yo‘qotish” tuyg‘usini Muyassarga qiyoslash to‘g‘riroq bo‘ladi. Chunki, u o‘zining temir qonunlarini, tartib-intizomga monand hodimlarini, umuman, o‘zining mavjudligini san’at asari yaratilganidan so‘ng yo‘qotdi. Uning kuchi san’at devorlarini oshib o‘tolmadi, yorib o‘tishga esa unda ilm qudrati yo‘q. Umrida bir bora kitob o‘qimagan insonning qo‘li qayergacha cho‘zilishi triptixning uchinchi qismida o‘z ifodasini topadi.

“Ishxonadagi ko‘rgazma”da bosh qahramon Asror Valiyevich – san’at odami edi. Biroq, sevgilisi orqali u, muallif ta’kidlaganidek, ishning odami bo‘lib qoladi. O’sha damlarda uning ko‘ziga Munisdan boshqa hech narsa ko‘rinmaydi, xayolan “Illoyo, shu qiz meni o‘g‘irlas!”, deya mastona oshiqligicha endi ko‘z ochib kelayotgan iste’dodidan ham voz kechadi. Biroq, u o‘sha paytlarda o‘zi uchun qanday og‘ir qaror qilganini juda yaxshi fahmlaydi: “ – Bilasanmi, hayotning ma’nosim nimada? San’atda!.. – deydi u, bu gaplarni endi kashf qilayotganday. U allaqanday ko‘ngliga oqib kirayotgan, o‘zi ham, unut bo‘lib ketgan davradosh birodarlari ham sarxush hushyorlikda qachonlardir gapirgan fikrlarni takrorlayotganini sezib turadi”, shunday bo‘lishiga qaramay, Munisni tanlagani xato bo‘lganini ham qiyofadoshi orqali ochiq tan oladi: “ – Bu qizni yoshlikda devona bo‘lib yaxshi ko‘rganman. Ammo ajralib ketishga to‘g‘ri keldi. O‘lib ketsam kerak degandim... Ammo o‘lmadim. Xudo qo‘lladi... ”. Bu bilan qahramon Munissiz ham hayot davom etishi mumkinligiga ishora qilyapti. Uning suratlarini chizish va tomosha qilish bilan ham kun ko‘rish mumkinligiga iqror bo‘lyapti. Yana bir holatda bu yaqqol ko‘zga tashlanadi: “Men san’atni, sinovingga dosh berolmay tashlab ketgan edimmi? Demak, hayotimni qachonlardir uzilgan joyidan endi qayta boshlashim kerakdir-da!”. Asror Valiyevich san’atning ishqibozni bo‘libgina qolmay, san’at ham o‘z o‘rnida uning yuragi ekanligi juda ishonarli tasvirlangan: “U lahzada atrofdagi odamlarni, ishxonani, ishxonaga nima kelganini, martabasining viqorini – hamma narsani tamom unutadi. Hatto atrofdagilarga u o‘zining kimligini ham esdan chiqarayotganday tuyuladi. Hodimlar uni allaqanday bir tarzda ichidan nurlana boshlaganini va hozir yuraklarni ne ajib ko‘ylarga solgan devorlardagi rasmlarga nimasi bilandir o‘xshay boshlaganini his qiladilar”.

Qahramonga o‘xshagan surat – bu kuz tasviri tushurilgan kartina edi: “Ayniqsa, bir kartina ro‘parasida uzoq ushlanib qoladi.... Bulutsiz osmon. Huvullagan dashtu qir. Qip-yalang‘och. O’t-o‘lanni yozu kuz allaqachon yanchib, vaqtga sovurib yuborgan. Bir chetdan ahyon-ahyonda



o‘tadigan mashinalarning izi qolgan jaydari tuproq yo‘l. Yo‘lning chetida bir qishloqi chol nevarasi bilan moshina kutib o‘tirishipdi. Egnida chopon. Boshida salsa. Nevarasi ham choponginada. Ular juda mitti tasvirlangan, hatto yuz-ko‘zлari ham ko‘rinmaydi. Ammo ularning bu ushoq tasvirlaridan allaqanday intiqlik, intizorlik, shu bilan birga yurakni oziqtiradigan noma‘lumlikning havosi taralmoqda...”. Muallif qahramonning san’atsiz o‘tgan umrini bulutsiz osmonga, huvullagan, qip-yalang‘och dashtga qiyoslayapti. Bu ham kamdek, u o‘zining g‘ayratini o‘t-o‘lanni yanchgan yozu kuz kabi vaqtga sovurmoqda. Mashina izi qolgan jaydari tuproq yo‘l izi esa uning ko‘nglida hali ham yashab kelayotgan ijod sog‘inchi chizgilari edi. Cholu nevara esa u o‘tkazgan umrning, keksaligu yoshlikning to‘fonlardan o‘zini qay darajada saqlay olganligi, qay darajada o‘zgorganining qiyosidir. Ularning mitti tasvirlanganida ham ramziylik bor. Hayot katta bir to‘fon bo‘lsa, bu insonlar uning ichidigani kichik bir zarra kabi bo‘lib qolishiga ishora. Qahramon shu to‘fon ichida muhabbat degan to‘siqqa uchradiyu, o‘zligini yo‘qotdi, ammo ko‘ngliga eshiksiz kirib bora olgan birgina surat uni derazalardan qo‘rqmay atrofga boqishga, yayov yurishga, ko‘ngilni tinglashga va ijod sari odimlashga chorladi, shu kuz tasviri orqali o‘zidagi jasorat tuyg‘usini uyg‘otdi: “O‘zining sukut turishiga arang sig‘ib o‘tirar ekan, endigi har qanday harakat o‘sha qachonlardir tashlab ketilgan o‘zi sari boshlashini tushunadi va negadir benihoya quvonadi”. Asror endilikda o‘zini parvoz etishga chorlayotgan kuch nima ekanligini biladi va bu kuch ijoddir. Kishi baxtni nimada ko‘rsa, baxt o‘shadir degan naql mazkur hikoya uchun juda mos keladi. Axir qahramonimiz o‘z sevgan qiziga uylandi, yaxshiginia ish o‘rni, martabasi, hurmati bor. Oddiy bir inson uchun yana nima kerak? Ammo u baxtni san’atda ko‘rar edi. Va shu bois ham, u shuncha tuhfalarga qaramay baxtsiz edi. Oqibat buni tushundi va o‘zini ijodga urib o‘zligini topdi.

Biroq, qahramonimiz Muyassar Qodirovna baxtni tartib-intizomda ko‘radi. Qisqasi, qonun, intizom – uning baxti, odamlar dilini xufton qilish, zo‘ravonlik, lavozim – iqbolidir. U turmush baxtni tuymagani bois atrofdagilarga alamzada nigoh bilan boqadi, alamini ulardan olib huzur qiladi. Ersizligi tufayli yuzaga keladigan ortiqcha vaqt hisobiga xodimlarga zulm qiladi. Ulardan me’yordan ziyoz tartibni talab qiladi. Qonun buzilgan taqdirda ham u haddan ziyod asabiylashadi: “Boqibek ba’zan besh-to‘rt kun ishda ko‘rinmay qoladi. “Ichayapti”, deyishadi bu yolg‘onchi dunyoda biro-bir yaxshilik ro‘y berishidan umidini uzganlar; hali ham g‘aroyib mo‘jizalardan umidvorlar esa, u “surat chizayotganidan” bashorat qilishadi. Hodimlar bo‘limining boshlig‘i Muyassar Qodirovnaning qiyofasi esa bu kunlar juda o‘zgarib ketadi: qovog‘i osiladi, ranggi o‘chadi, ingichka lablari yanada ingichkalashadi”. Aslida uning familiyasida ham bir ramziylik borga o‘xshaydi. “Qodirovna” hamma narsaga qodir. Odamlar dilini xufton qilishda unga teng keladigan topilmaydi. “Ko‘z-quloqlik” vazifasiga jon-jahdi bilan amal qiladi. Ishi uchun o‘zini ham, birovlarni ham ayamaydi. Bu holga Asror Valiyevich shunday izoh beradi: “Bu yer sizga SRU emas, idora. Odamlar erkin o‘tirib, emin ishlashi kerak”. Bu qahramon hatto yaqinlari bilan to‘yga borishdan ham ma’no topmaydi. Undan ko‘ra jimgina turgan eshikka oshiqcha uskuna qo‘yib, ortiqcha tartib hosil qiladi-da, shu bilan intizom degan yangi qoidani joriy qiladi. Ishxonada bosh bo‘lib o‘rgangan Qodirovna endi uning o‘rmini qo‘shnilariga zo‘rlik qilib to‘ldiradi-da. Ammo bularning bariga baxtsizlik, mehrsizlik sabab. Axir u birgina mehr bilan qanchalar o‘zgarishi mumkin edi. Esi og‘ib qolgan chog‘ida ham shu mehrning taftini unutmagan holda intizorlik bilan kutadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Usmon Azim hikoyalari shunchaki o‘qish bilan tugatib bo‘lmaydi. Unda haqiqiy izardrob asar tugugandan keyin boshlanadi. Qizig‘i, muallif hikoyalash jarayonida bayonchilik orqasidan quvmaydi. O‘quvchini asar markaziga tortadigan chorlovchi yondashuvdan yiroq tasvirlarni kitobxonga g‘aroyib holda taqdim etadi. Undagi qahramonlar har qanday o‘quvchini jiddiy o‘yga toldiradi, toldiribgina qolmay azob ham beradi. Kishining ichki izardroblarni tashqariga chiqaradi, so‘roq qiladi. Eng nozik tug‘yonlarni chertib o‘tadi. Shu bois ham, Usmon Azim hikoyalari adabiyotshunos olimlar va ihlosmand kitobxonlar e’tirofiga sazovor bo‘lgan.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. E. Xudoyerberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent. Sharq. 2008.
2. H. Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent. 2004
3. Q. Yo‘ldosh, M. Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent. Kamalak. 2016.



К ВОПРОСУ СПЕЦИФИКИ ПЕРЕВОДА ПОЭТИЧЕСКОГО ТЕКСТА

Сарсенбаева Асем Амангелдиевна,

магистрант 1 курса Каракалпакского

государственного университета имени Бердаха

Телефон: +998997482609

a7sarsenbaeva@gmail.com

АННОТАЦИЯ: Поэтический перевод представляет собой особую форму художественного перевода. Данная статья посвящается рассмотрению особенностей перевода поэтических текстов, понятия поэтического перевода, проблемы формы и содержания в переводе.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: поэтический текст, поэтический перевод, рифма, поэтическое произведение, перевод.

Вопрос об особенностях перевода, в частности, художественного, считается одним из ведущих как в лингвистике, так и в литературоведении. История исследований специфики поэтического перевода берёт свои истоки ещё с Древнего Рима, и, следовательно, уже тогда объектом научного внимания была проблема соответствия подлиннику – одна из актуальнейших вопросов переводческой практики.

В своей статье “Поэзия перевода” С.Я.Маршак приводит следующее мнение: «Перевод стихов - высокое и трудное искусство. Я выдвинул бы два на вид парадоксальных, но по существу верных положения: Первое. Перевод стихов невозможен. Второе. Каждый раз это исключение. Прочитав перевод из Гейне, из Шиллера, Горация или Расула Гамзатова, читатель должен быть уверен, что он и в самом деле прочел стихи Гейне, Шиллера, Горация и Расула Гамзатова, что поэт-переводчик донес до него подлинные мысли и чувства поэтов, не утеряв ничего главного, основного, существенного. При этом степень вольности и точности перевода может быть различна - есть целый спектр того и другого. Важнее всего передать подлинный облик переводимого поэта, его время и национальность, его волю, душу, характер, темперамент»[4]. С такой точкой зрения поэта к проблеме перевода стихотворений трудно не согласиться, так как поэтический текст составляет одно целое, вбирающее в себя художественную смысловую структуру, а также оно функционирует ввиду ряда факторов: экстралингвистических, социокультурных, психологических и др.; В результате этого в поэтическом тексте могут быть сосредоточены разнообразные смыслы: языковые, культурологические, субъективные.

Возникновение проблемы эквивалентности перевода объясняется такими ньюансами как утрата формы стихотворного текста при сохранении лексико- семантического составляющего текста и утрата систем образов оригинала при сохранении его формы. И переводчику поэтического произведения следует учитывать все особенности в исходном варианте. Однако, в ходе работы над переводом стихотворного текста возможны такие трудности как расхождение систем стихосложения в языковой паре, и перевод должен осуществляться с учётом грамматических, лексических, фонетических, стилистических различий в языках. Главным же требованием остаётся сохранение не только языковых норм при переводе, но и достижение эквивалентности, передача эмоционально- эстетического содержания поэтического произведения. Касательно сохранения компонентов стихотворной формы и системы образов И. С. Алексеевой выдвинуты нижеследующие параметры: 1) сохранение размера и стопности; 2) сохранение каденции, музыкальной интонации стиха; 3) сохранение типа чередования рифм; 4) сохранение полностью либо в основном звукописи; 5) сохранение количества и места в стихе лексических и синтаксических повторов; 6) поиск близкого аналога системе стихосложения оригинала; 7) адекватная передача средств выражения системы образов (стилистические, синтаксические, морфологические, характер тропов, лексикология, узус и кодификация). Важнейшей задачей переводчика является правильная передача поэтической формы стихотворного произведения [1]. В отличие от прозы поэтический текст чаще всего представляется в виде короткого текста, выделенного в особую форму с особой семантико- стилистической и образной концентрацией. По поводу невозможности полного соответствия подлиннику весьма примечательное мнение приводит Л. С. Бархударов: «Трудности перевода поэтических произведений обусловлены



«расхождениями между структурой двух языков и жесткими формальными требованиями, налагаемыми на поэтические тексты» [2].

Таким образом, поэзия считается особой областью перевода, и её специфика связана со своеобразием художественной и структурной организации. Поэтический перевод является сложным и трудоемким процессом, это создание вторичного поэтического текста, который параллелен оригиналу по форме и содержанию. Неслучайно В. Н. Комиссаровым поэтическому переводу даётся определение как ««вид языкового посредничества, при котором содержание иноязычного текста оригинала передается на другой язык путем создания на этом языке коммуникативно-равноценного текста»[3]. Перевод поэтического текста предполагает владение переводчиком необходимыми языковыми знаниями, литературным талантом, навыками интерпретировать текст оригинала и передать основную мысль и настроение стихотворения.

Список использованной литературы

1. Алексеева И.С. Профессиональный тренинг переводчика: учебное пособие по устному и письменному переводу для переводчиков и преподавателей // Спб.: Издательство «Союз», 2001. 288 с.
2. Бархударов Л.С. О лексических соответствиях в поэтическом переводе. Тетради переводчика // М.:Международные отношения, 1984. С. 18-23.
3. Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). — М.: Высш. шк., 1990. — 253 с.
4. Маршак С.Я. Портрет или копия? (Искусство перевода). Собрание сочинений в 4-х томах. Том 4 (статьи, заметки, воспоминания). М.: Правда, 1990. 453 с.



ABDULLA QAHHORNING OBRAZ YARATISH MAHORATI

Satayeva Nargiza Abdullayevna,
Xorazm viloyati Bog`ot tumani
36-maktab o`zbek tili o`qituvchisi
Telefon: +998907267403

Nurullayeva Nafosat Xikmatillayevna,
Xorazm viloyati Bog`ot tumani
49-maktab ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi
Telefon: +998997537169

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning serqirra ijodiga xos ko`pgina fazilatlarni ochib berishga, obraz yaratishdagi mahoratini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilib, asarlaridagi misollar asosida asoslab berish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so`zlar: mustaqillik g`oyalari, serqirra ijod, obraz yaratish, Vatan mustaqilligi, qissa va romanlar, mafkuraviy kurash.

Abdulla Qahhor XX asr o`zbek adabiyoti xazinasiga o`zining realistik hikoya, qissa, roman, dramatik asarlari va badiiy tarjimalari bilan munosib hissa qo`shgan siyomlardan biridir. Adibning mustaqillik g`oyalariha hamohang bo`lgan asarlari bugungi kunda ham zamondoshlarimiz tomonidan sevib mutolaa qilinmoqda.

A.Qahhorning serqirra ijodi adabiyotshunoslikda atroflicha tadqiq qilindi va qilinmoqda. Xususan, Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo`shjonov, Baxtiyor Nazarov, Umarali Normatov, Ibrohim Haqqul singari adabiyotshunos olimlarning tadqiqotlarida Abdulla Qahhor ijodiga xos ko`pgina fazilatlar ochib berilgan. Ayniqsa, istiqlol yaratib bergen erkin va xolis mezonlar asosida adabiyotni o`rganish va tadqiq qilish davrida adib ijodining hali ochilmagan yangi qirralarini kashf etishda munosib ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu ma`noda, A.Qahhorning obraz yaratishdagi mahoratini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilib, asarlaridagi misollar asosida asoslab berish o`rnlidir.

Misol tariqasida olsak, «Sarob» romanida o`tgan asrning boshlarida ijtimoiy omillar ta`sirida yuz bergen voqealar favqulodda bir mahorat bilan tasvirlangan. Bu asar tarixiy mavzuda yozilgan, lekin qahramonlari tarixiy shaxslar bo`lmasa ham tarixiy haqiqatga mos, yozuvchi fantaziysi bilan yaratilgan obrazlar bo`lib, tarixiy voqealarga nisbatan ko`proq umumlashtirilgan shaxslardir. «Sarob» notinch yillar ruhiga mos va hamohang bo`lib, davr vogeligi tasviriga bag`ishlangan birinchi romandir. Unda jamiyatda bo`lib o`tgan mafkuraviy kurash tasvirlangan.

Asarni bir eslab ko`raylik. «Sarob»da Abdulla Qahhor Saidiy taqdirini batafsil tasvirlaydi, Murodxo`ja domla, shahar maorif bo`limining mudiri Salimxon, adabiyotshunos Abbasxon, tergovchi Mirza Muhiddin, Munisxon, Soraxon, jurnalist Yoqubjon, savdogar Muxtorxon kabi bir qator obrazlarning har birining o`ziga xos xarakteri, ichki dunyosi, ruhiyati, maqsadu niyatlarini yorqin aks ettiradi. Ayniqsa, Murodxo`ja domla xarakteri jonli va to`laqonli qilib gavdalananadi.

Abdulla Qahhor ajoyib hikoya, qissa va romanlar yaratish bilan birga, adabiyotning eng qiyin janri bo`lgan dramaturgiya sohasida ham iste`dodini namoyish etdi. Adibning dramaturgiyada ko`targan mavzulari hanuzgacha dolzarb bo`lib turibdi. Uning «Yangi yer», «Og`riq tishlar», «Tobutdan tovush» kabi komedyalari o`zbek dramaturgiyasi taraqqiyotida yangi bosqich bo`ldi.

Mana shu asarlarida ham A. Qahhor haqiqiy obraz yaratish, ta`sirchanligini yuqori nuqtalarga yetkazishni asosiy ishlardan biri deb bilgan.

Masalan, «Yangi yer» asarida adib zamondoshlari obrazi, yorqin xarakterlar yaratishda katta yutuqlarni qo`lga kiritgan. Komedyada Dehqonboy, Hafiza va Qo`ziyev kabi sofdir, vijdonli yoshlarning umumlashma obrazlari, Mavlon aka singari mehnatsevar, sodda, halol, biroq manmanlikka berilgan o`jar kishi obrazi, shuningdek, Hamrobuvi va Xolnisoga o`xshagan samimiy va mehribon ona obrazlari ishtirok etadi.

«Og`riq tishlar» komedyasiga chuqurroq nazar tashlasak, asarda zamonaviy mavzu aks ettirilganligi, ammo asarda hayotdagi jamiyat taraqqiyotini idrok etadigan kishilar emas, balki kelajak yo`liga to`sinq bo`layotgan shaxslar tasvirlanayotganligining guvohi bo`lasiz. Bu, albatta, asar janr xususiyati bilan bog`liq. Komedyada zaharxanda kulgi – satira ustun turadi. Avvalo, dramaturgning ustaligi shundaki, u asarning markaziy obrazlarining biri hisoblangan



Zargarov singari noplarni illatlarni aks ettiruvchi kimsalarni fosh etish asosida halollikni, tenglikni, insoniylikni,adolatni targ‘ib etadi. Zargarovning sharmandayu sharmisor bo‘lishini ko‘rsatishda satiradan ustalik bilan foydalanadi. Natijada, Zargarov obrazini jonli va juda ishonarli ko‘rsatishga erishadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘tgan asrning murakkab muhitida yashab, ijod qilgan, Istiqlolimizni astoydil qo‘msagan, adolat mavzusini o‘ziga bayroq deb bilgan betimsol so‘z san’atkori Abdulla Qahhor o‘zbek adabiyotini betakror badiiy obrazlar hisobiga boyitdi va bu boradagi yutuqlari adibning yetuklikka ko‘tarila olganligidan dalolat beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Abdulla Qahhor . Asarlar (5tomlik). Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1987-1989.
2. Abdulla Qahhor “Zilzila”, -“Sharq yulduzi”, 1996, 11-12-son.



ADABIYOT – TARBIYA VOSITASI

**Temirova Dilafruz Umedovna,
Hotamova Feruza Abdurahmonovna**

Buxoro viloyati Jondor tuman
40-sontum umumta'lim maktabi o'qituvchisi
Tel: +998 93 478 29 94

Annotasiya: Adabiyot tarbiya vositasi. Buni tan olmaslikni men adabiy bodilik, deb tushunaman. To‘g‘ri, adabiyot muallim yoki ota-onan kabi bevosita tarbiya bilan shug‘ullanmaydi, ammo u tuyg‘uni, didni, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi tasavvur chegarasini, ko‘ngil va qalbni tarbiyalaydi. Shuning uchun u tarbiya vositasidir.

Kalit so‘zlar: Adabiyot, tarbiya, Ortega Gasset, roman, feltonchilik, majozlar, obrazlar, badiiyat, poetika

Insoniyatning bugungi ko‘plab fojiasi ma’lum ma’noda adabiyotdan uzoqlashishi yoki u bilan qalblarini tarbiyalamay qo‘ygani bilan bog‘liq ekani dunyo allomalari o‘rtasida tahlil qilingan va qilinayapti. San‘at, jumladan, adabiyot tarbiyalamagan qalb vahshiylikka, yovuzlikka, tubanlikka moyil qalbdir. Chunki adabiyot bilan to‘lgan qalbga yovuzlik kirib olishi qiyin kechadi, ko‘ngil mayli yovuzlik tomonga o‘tishdan oldin u yerda adabiyot bunyod etgan qo‘rg‘onlarni, qal’alarni buzib tashlashiga to‘g‘ri keladi. Adabiyot bilan to‘yingan qalb, ong – poydevori mustahkam binoga o‘xshaydi. U zalolatga boshlovchi ko‘plab zilzilalarga dosh bera oladi. Adabiyot va san‘at tarbiyalamagan qalb “eng past balli silkinishlarga” dosh berolmay, to‘kilib ketadi. Bu – asrlar osha isbotlangan haqiqat. Adabiyotning kishilik ongu tafakkurida, ma’naviy olami, madaniy taraqqiyotida tutgan o‘rnidan xabari bor, kalom san‘atining nima uchun paydo bo‘lgani-yu uning bosh vazifasi nimaligini bilganlarga bu gaplarni gapirib o‘tirish ortiqchaday tuyulishi mumkin. Ammo xavotir-savol bekorga qo‘yilgani yo‘q, aftidan. XXI asrga kelib, adabiyotning hayotda, ijtimoiy munosabatlarda, ommaviy e’tiroflarda, tarbiyada, “olomonchilik didi hukmron didga aylangan” (Ortega Gasset) pallada ochiqchasiga shubha qilinayotgani tufayli bir og‘iz “Ha!” deb qo‘yishning o‘zi ham yetarli emasga o‘xshaydi. Tan olish qanchalik og‘ir va achinarli bo‘lmasin, adabiyot bugungi kunda o‘zining ellik yil oldindi o‘rmini butunlay olomon didiga – Herman Hessening 1943 yilda yozilgan “Biser o‘yini” romanida tilga olingan ommaviy madaniyat unsurlariga bo‘shatib berayotgani ayni haqiqat. (Romandagi asosiy voqeа 2200 yilda yuz beradi. Olis kelajakning tarixchi roviysi o‘z davridan turib, bosh qahramon Knext nuqtai nazaridan kelib chiqib, o‘tmish – XX asr madaniy hayoti va jamiyatini ilmiy, falsafiy-psixologik tahlil qiladi. XX asr “feltonchilik”, bugungi til bilan aytalganda, ommaviy madaniyat gullab-yashnagan davr. Bu davrda odamlarni olomonchilik kayfiyati o‘z changaliga olgan. Asar roviysi bu kayfiyatni “feltonchilik” madaniyatni, deb ataydi. “Felton” nemis tilida “ko‘ngilochar”, “ermak” degan ma’nolarni beradi. Odamlar yuksak tuyg‘ular, yuksak maqsadlar qolib, hayotlarini ermak va ko‘ngilochar faoliyat bilan o‘tkazishadi. Gazetalar, ommaviy matbuot, kitoblar, asarlar, san‘at namunalari ana shu maqsadda yaratiladi. Bu davr olimlari ham haqiqiy ilm bilan emas, “Fridrix Nitsshening ayollarga munosabati”, “Rossinining sevimli taomi”, “Bo‘ydoq bo‘lishning o‘ziga xos fazilatlar” kabi tadqiqotlar, to‘g‘riroq‘i, oldi-qochdilar bilan shug‘ullanishadi. Omma maishiy va ermak madaniyatga mukkasidan ketgan. Jamiyat esa ularni eng keraksiz, hayot va go‘zallikka, insonning mohiyati va missiyasiga zid axborotlar bilan manipulyasiya, mute qilib turadi. Bu davr odamlari bo‘sh qoldi deguncha yo oldi-qochdi o‘qishadi, yo turli shoular, masxarabozliklarni tomosha qilishadi, turli krossvordlar, skanvordlar va boshqa ermak o‘yinlar bilan mashg‘ul bo‘lishadi, san‘at asari deb tomosha qildiganlari, musiqa deb eshitadiganlari – barchasi shunchaki ermak, ko‘ngilxushlik, jazava, kun o‘tkazish vositalari, xolos. Bu o‘yinlarda insonni ma’nana boyitadigan, uni tozalaydigan, uni bani olam uyg‘unligiga, ruh va jism birligi – vahdat ul-vujudga undaydigan hech narsa yo‘q. Odamlar o‘zlarini iqtisodiy va siyosiy buhronlardan chalg‘itish uchun, ichlaridagi ertangi kun oldidagi xavotir va qo‘rquvlarini yashirish, o‘zlarini aldash uchun shunday faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lishadi. Hesse roviy tilidan bunday madaniyat va jamiyat tanazzulga mahkum, deb xulosa chiqaradi.) Mabodo shunday ekan, bu xavotir va savol o‘z-o‘zidan tug‘ilgani yo‘q. Yigirma yilcha oldin Shukur Xolmirzayev ham “Adabiyot o‘ladimi?!” degan savol bilan chiqqandi. Garchi o‘sha payti hurmatli adibimizning o‘zi ham, shu bahsda ishtirot etganlar ham “Adabiyot



o‘lmaydi!” degan o‘ta ko‘tarinki ruhdagi chiqishlar qilishgan bo‘lsa-da, adabiyot o‘zining ta’sir hududlarini, qamrov doirasini butun dunyoda o‘tgan yigirma yil ichida yana ham ko‘proq boy berdi. Chinakam san’at asarlari, chinakam adabiyot tor doiradagi kishilarining ko‘ngil ishlari, tashvish va kuyinishlari bo‘lib qolayotganini ko‘rib turibmiz. Bugungi didning olomonlashuvi va muammolarning globallashuvi davrida adabiyotga “tarbiya vositasi” sifatida qaralayotgani yo‘q. Chunki olomon bugun o‘zining ko‘ngil ermagini, ko‘ngil ehtiyojini boshqa vositalardan topib oldi – u bugun seriallar, oldi-qochdilar, shoular, mashshoq va masxarabozlarning tomoshalari bilan ovora. Chinakam adabiyotga ehtiyoj sezayotgani ham yo‘q. Uning didi, saviyasi, ruhi, tasavvuriga shou-biznes, tomoshalar, shov-shuvlar va seriallar “zeb” berayapti, o‘ziga moslashatirayapti. Hessening bashoratlari XXI asrga kelib o‘zining isbotini topmoqda. Achinarli bo‘lsa ham bugun dunyo adabiy didi, badiiy manzarasi shu holatda.

Aslida, didga, saviyaga, haqiqiy adabiyotga hamisha ham xuruj bo‘lib turgan. Aynan shu sababli ham biz yozilgan har bir asarni adabiyot, deb qabul qilolmaymiz. Adabiyotning o‘z qonunlari va talablari bor. Ana shu qonunga va talabga bo‘ysunmaganlar adabiyot bo‘lmaydi. Shulardan eng birinchi talab – adabiyot hamisha ezgulik tarafida bo‘lgan va ezgulikni himoya qilgan, rujni ezgulik tomon boshlagan. Ana shu birlamchi qoidaga amal qilinmagan bo‘lsa, bunday asarni adabiyot, deb bo‘lmaydi. Tarixda yozganlarini adabiy asar sifatida e’tirof etishlarini istaganlar xohlagancha topiladi. Adabiyotning bosh vazifasiga to‘g‘ri kelmaganlarni vaqt, baribir, o‘chirib tashlayvergan. Ammo bu yerda adabiyotni qabul qilish o‘quvchining saviyasiga, yoshiga va idrokiga bog‘liqligini inkor qilib bo‘lmaydi. Kafka bilan Kiplingni, Folkner bilan Mark Twenni bir xil qabul qilib bo‘lmaydi. Kafka bilan Folkner o‘quvchidan ma’lum bir tayyorgarlikni, siz aytmoqchi bo‘lgan, “xoslik”ni talab qiladi. Shu sababli Kafka va Folknerni mакtab o‘quvchisiga tavsiya qilish, agar u alohida qobiliyat egasi bo‘lmasa, bola ruhiyatini sindirishdan boshqa narsa emas. Kafka, Folkner asarlaridagi “ezgulik” o‘zini idroki baland o‘quvchiga namoyon qila oladi. Oddiy asarga ko‘nikkan o‘quvchida noxush taassurot, hatto teskari ta’sir o‘tkazishi ham mumkin. Siz aytgan yoshlar hali dunyo adabiyoti oqimlari va uslublarining farqiga bormay turib, inkor ta’siriga tushib qolgan o‘quvchilar. Lekin bu holat Kafkaning ham, Folknerning ham aybi emas, balki ularni hazm qilolmagan, ular haqida to‘laqonli bilimga ega bo‘lмаган o‘quvchilarning aybidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz.- T.:O‘zbekiston NMIU, 2017.
2. Milliy pedagogika mohiyati. Umumta’lim maktablari o‘qituvchilari uchun qo’llanma.- T., 2013.
3. Ziyomuxammadov B. Milliy pedagogik texnologiyani ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbig’i va uni yoshlar intellektual salohiyatini yuksaltirishdagi o’rni.- T.:Mumtoz so’z, 2010
4. X.Ibragimov, Sh.Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi(darslik). T., “Fan va texnologiya”, 2008



O'QUVCHILARNING SAVODXONLIK DARAJASINI OSHIRISHDA DIKTANT TURLARINING AHAMIYATI

To'rayeva Sohiba Saidaxmedovna

Namangan viloyati Norin tumani

27-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Tel: +998 939475562

ANNOTASIYA: Ta'lif tizimida savodxonlik darajasini oshirishda diktantning ahamiyati borasida bajarilishi mumkin bo'lgan ishlar haqida yozilgan

TAYANCH SO'ZLAR: imloviy savodxonlik, diktant, yozma nazorat turi, chala diktant

O'quvchilarning imloviy savodxonligini baholashda yozma nazorat turlari, xususan, diktantning o'rni beqiyos ekanini har birimiz yaxshi anglaymiz. Ammo nazoratning bu turi har chorakda 1, nari borsa, 2 marta o'tkaziladi. Shu sababli joriy darslarda ham diktantning turlari: saylanma diktant, o'z diktant, lug'at diktant kabilardan unumli foydalanish joiz. Deylik, gapning uyushiq bo'laklari mavzusi o'quvchilarga tushuntirib berilgach mashqlarning ayrimlari (berilishiga qarab) og'zaki, ayrimlari yozma bajariladi. Berilishida yozma bajarilishi so'ralgan mashq yoki topshiriqni o'quvchilardan kitoblarini yopib qo'yishni so'ragan holda aytib yozdirish, yozib bo'lingach matnni o'quvchining o'zi yordamida tekshirtirish(har bir o'quvchining qo'lida darslik bor), so'ngra matndagi uyushiq bo'laklar yuzasidan berilgan topshiriq ustida ishslash, o'ylaymanki, o'quvchilarning ham savodxonligi, ham mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Lug'at diktant. Diktantning bu turi juda qulay, ixcham shaklda ekani, o'quvchini zeriktirib qo'ymasligi bilan ajralib turadi. Lug'at diktantni ona tili darslarida muntazam qo'llash mumkin. Buning uchun o'qituvchi imlosi murakkab, talaffuzi va imlosi o'rtasida tafovut mavjud bo'lgan, tilimizga yangi kirib kelgan, tarkibida x yoki h undoshi mavjud bo'lgan so'zlarni darsga tayyorgarlik jarayonida A4, A3 formatdagi qog'ozga(kompyuterda, markerda) katta-katta qilib yozib kelishi lozim. Har bir dars so'ngida olinadigan lug'at diktant uchun 5 ta so'z kifoya. Masalan: muvaffaqiyat, mahsulot, poyabzal, manba, afv.

O'qituvchi bu so'zlarni o'quvchilarga aytib yozdirgach oldindan tayyorlab kelgan namunani o'quvchilarga ko'rsatadi va o'z-o'zlarini tekshirishlari lozimligi aytildi. Men ko'pincha bunday paytlarda so'zlarini o'zim doskaga yozib ko'rsataman, bu bilan yozish texnikasi, harflarning ulanishi, qanday chirolyi xatga ega bo'lish mumkinligi haqida ham tushuncha hosil qilishlariga erishaman. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, lug'at diktantda nafaqat so'zning imlosi, balki ularning ma'nolari ustida ham ishslash maqsadga muvofiq. Aytaylik, adabiyot fanidan G'afur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasi mavzusi o'tilgan dars so'ngida asar matnidagi "hammollik, sirach, chordavor, obi-yovg'on, zog'ora" kabi so'zlar asosida lug'at diktant olinsa, o'quvchilarda ushbu so'zlarining ham imlosi, ham ma'nosi haqida yorqin tasavvur uyg'onishiga erishish mumkin.

Chala diktant. Nafaqat ona tili, balki adabiyot, tarix, geografiya kabi qator fanlarda ham qo'llash mumkin bo'lgan diktantning bu turi o'quvchining ziyrakligi, topqirligini sinovdan o'tkazish bilan birga uning savodxonligini ham oshiradi. Misol uchun geografiya fanida "Markaziy Osiyoda hududiy jihatdan eng yirik davlat bo'lib, jahon mamlakatlari ichida maydoni bo'yicha 9-o'rinni egallaydi" jumlesi asosida chala diktant olinib, o'quvchidan matnni to'ldirish so'raladi. Bunda o'quvchi bo'sh joyga Qozog'iston so'zini qo'yish bilan xotirasida mavzuga doir ma'lumotlarni mustahkamlash bilan bir qatorda so'zning imlosini ham esda saqlaydi. Yoxud adabiyot fanidan "Kim sanga bir harf o'qitmish ranj ila, Aylamat bo'lmas ado oning haqin ila" fardi asosida chala diktant olinganda o'quvchi matnga "yuz ganj" birligini qo'yishi bilan o'zining shu so'z ma'nosini anglaganini, ya'ni ganch (naqsh uchun ishlatiladigan qurilish materiali) so'zidan ajrata olishini, shuningdek, baytni yod olganini namoyon qiladi. Uy diktant. Ha, yanglishmadingiz, uy diktant. Bilasizmi, bu ham bolada o'zini o'zi nazorat qilish, rostgo'ylik kabi fazilatlarni tarbiyalash bilan birga savodxonlikni oshirishga yordam beradigan usullardan biri. Uyga vazifa sifatida tavsiya qilingan matnli mashqlarni o'quvchiga uyda diktant qilib yozish topshirig'ini berishingiz mumkin Qanday qilib deysizmi? Bu juda oddiy. O'quvchi buning uchun ota-onasidan, singlisi, ukasi yoki o'rtog'idan yordam so'raydi. Oila a'zolari tomonidan aytib yozdirilgan diktant o'quvchining o'zi tomonidan matndan foydalangan holda



tekshirilib xatolar jamlanadi. Bu jarayonda o‘qituvchining psixologik tushuntirish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Dastavval, uy diktantdan foydalanganimda ayrim o‘quvchilarning mashqni ko‘chirib kelishlari, xatolar sonini yashirishlari kabi holatlar bo‘lgan. Bu tabiiy. Va men ham bu holatda o‘quvchini ayplashga urinmadim, shunchaki men ularga ishonishim, ular uchun esa qanday baho olishlaridan ko‘ra ko‘proq qanchalik savodxon ekanliklarini bilish muhimligini bosiqlik, qat’iy ishonch bilan tushuntirdim. Bundan ta shqari, uy diktantni mutlaqo xatosiz yozganlarga na maqtov, xatosi ko‘plarga na dakki berdim. Yana uy diktant yozishlaridagi eng muhim jarayon ularning o‘z yozganlarini haqqoniylig bilan tekshirishlari ekanini uqtirishni unutmadim. Sababi, bunda o‘quvchi x atolarini o‘z ko‘zi bilan ko‘radi, tuzatadi. Bu esa uning ushbu xatoga boshqa yo‘l qo‘ymasligiga yordam beradi.

Joriy darslarda tashkil qilinadigan bu taxlit diktantlarning ahamiyatli tomoni nazorat turi sifatida olinadigan diktantlardan farqli ravishda o‘quvchida rostgo‘ylik, o‘zi uchun mas’ullik, tanqidiy fikrlash, tahlil qilish kabi sifatlarni shakllantiradi. Ayrim hollarda uy diktantni faqat onangiz yoki otangiz aytib tursin deb tayinlayman, bu es a ota-onalarning mas’uliyatini oshiradi, o‘qituvchi bilan hamkorligini yo‘lga qo‘yadi. Betakror Vatanimizni rivojlangan mamlakatlar qatorida ko‘rishni istar ekanmiz, yosh avlodni ma’nан yetuk, jisman sog‘lom, ruhan tetik, savodxon insonlar bo‘lib kamol topishi uchun timmay izlanishimiz, yurtimiz istiqboli uchun hissa qo‘shmog‘imiz lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva va b. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. T. 2017.
2. To‘lqin Tog‘ayev va b. O‘zbek tilining kirill va lotin alifbosidagi imlo lug‘ati. T. 2004.
3. Abdullayeva Q va b. Diktantlar to‘plami. T. O‘qituvchi. 1997.



DRAMATIK ASARDA QAHRAMOLAR NUTQI.

Ahmedova Vaziraxon Asqarovna,

I.Karimov nomidagi TDTU OF

“O’zbek tili va adabiyoti” kafedrasi mudiri,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Abduashimova Munisa,

I.Karimov nomidagi TDTU OF 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqolada dramatik asar tilining o‘ziga xosligi, qahramon tasvirida badiiy nutqning o‘rni, xususan, til vositasida har bir obrazning individual xususiyatlari qay tarzda yoritilishi tadqiq etilgan.*

KALIT SO‘ZLAR: *drama, pesa, monolog, dialog, badiiy detal, vulgarizm, varvarizm, personaj, remarka, replika, syujet, kompozitsiya.*

Barcha turlar kabi drama uchun ham so‘z – birdan-bir badiiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Drama tili qanchalik jozibali va me‘yorida, qahramonlarning xarakterlariga mos bo‘lsa, undagi vositalar ham mahorat bilan qo‘llanilsa, kitobxon tomoshabinlarning ongiga, shuuriga kuchli darajada ta‘sir etib qiziqish va ta‘sirlanish uyg‘otadi, emotSIONallikni ta‘minlaydi, asarning g‘oyaviy-estetik fazilatini oshiradi. “Tilning badiiy asardagi alohida roli shunda ko‘rinadiki, – deb yozadi akademik I.Sulton, – asarning qurilishida, xarakterlar tasvirining chuqurligida, kompozitsiyasida nuqson bo‘lsa, o‘quvchi unday asarni o‘qishi mumkin, ammo tili no‘noq bo‘lsa, o‘qimaydi. Tildan boshqa komponentlari jihatidan nuqsonli asarlar...yashashi mumkin...ammo til jihatdan no‘noq asar adabiyotda uzoq yashay olmaydi”¹. Shuning uchun ham pesa yaratayotgan dramaturg asar tiliga nihoyatda ehtiyyotkorlik va e’tibor bilan yondashishi, personajlar tilining jonli, sodda, so‘zlashuv nutqiga yaqin bo‘lishi uchun tinmay, qunt bilan mehnat qilishi talab etiladi. Dramaturg tur xususiyatlariga ko‘ra shoир va prozaikka o‘xshab, voqealarga bevosita aralasha olmaydi, personajlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri munosabat bildirolmaydi. Asarning g‘oyaviy maqsadiga muvofiq xarakterlarni o‘zaro so‘zlatib, o‘z manfaatlari yo‘lida xatti-xarakatga undaydi. Drama tili remarkadan tashqari, dastavval personajlar tilidir. Shuning uchun dramaturg har bir personajga o‘z xarakterlariga mos keladigan nutq shakllarini topa olishi va ularni shu tilda so‘zlatishi lozim. Dramaturg personajlarga xarakteristika berishni lozim topsa, doim ham remarkadan foydalana olmaydi. Bunday bir xillikdan qochib, dramaturg personajlarni o‘zlarini-o‘zlar tavsiflashi yoki boshqa personajlar tomonidan tavsiflanishiga erishadi. San’atkor har bir qahramonni shunday so‘zlar bilan gapirtirsinki, bu so‘zlar uni boshqa qahramondan ajratib turishga asos bo‘lsin. “Temir xotin” dramasida bosh qahramon Qo‘chqorning nutqidagi “rakatoping”, “nima gress”, “nimalashtirish” kabi chala so‘zlar uning o‘ziga xos xarakterini ochib berishga xizmat qilgan. Bir shaxsni ikkinchi shaxsdan ajratadigan, ularning individual xususiyatlarini bildiradigan, o‘ziga xos xarakterlarni namoyon qiladigan vosita ham til. Har bir qahramonga shunday luqmalar beriladiki, unday luqmalarni boshqa shaxs aytishi mumkin emas (Masalan, Qo‘chqorning nutqi, Olimjonning nutqidan farq qiladi). Chunki ular o‘zlarining hayot tajribalari, dunyoqarashlari, voqelikdagi hodisalarini tahlil qilish darajasi, insonlarga baho berish jihatlarini bilan ajralib turadilar, bir-birlariga o‘xshamaydigan so‘zlash manerasi bilan farqlanadilar. Dramaturg asarning tilini berishda grammatika qoidalariiga aynan buysungan holda ish tutmaydi, u ba’zan jumlaning egasini tushirib qoldirishi, fe’lga qo‘shimcha yuk berib bo‘rttirib, til qonunlardan chiqib ketishi, butun boshli jumlalarni bir so‘z yoki sukunat bilan izhor etishi mumkin. Shu sababdan ham tilda luqmalarni ixcham, dialoglarni aniq va tasvirli bo‘lishini talab qilishni dramaning xarakteri taqozo etadi.

Bugungi kunda faol ijod qilayotgan adibimiz Erkin A’zam ham o‘z dramalarida har bir obrazni “o‘z tilida” gapirtiradi. Qahramonlar tili orqali ularning ruhiyati, fojiasi tasvirlanadi. Yozuvchining “Jannat o‘zi qaydadir?” dramasi qahramoni Xonimning nutqidan berilgan “baks, dollar, papang(dada), xo‘pchik” kabi iboralarning keltirilishi uni savdo sohasiga aloqador ekanligini anglash mumkin. Ushbu dramadagi Domla va Xonimning diloglarini kuzatar ekansiz, ularning dunyoqarshidagi har-xillikni guvohi bo‘lasiz. Asardagi qator luqmalar, monolog va dialoglar sirdan qaraganda, “muloyim va osoyishta ko‘ringani” bilan aslida “chuqur mazmunga ega”dir.

1 И.Султон Адабиёт назарияси,. – Т; Ўқитувчи, 2005. 127-бет



Pesadagi personajlar o‘zlarining qanday ekanliklarini aytgan so‘zlari va qilgan ishlari bilan bildirib qo‘yadilar. Boshqacha qilib aytganda, nima haqida gapirishlariga, nimani o‘ylashlariga, nima ish qilishlariga qarab asar qahramonlarini xarakterlaymiz, faoliyatlariga baho beramiz. Dramaturg asar boshida Melis obrazini o‘ta “zamonaviy” qilib tasvirlaydi, uning nutqida “*mamul, papul, okey, privet, ment, tachka*” va boshqa varvarizmlarni keltiradi va shu orqali uning xarakterini ochib beradi. Asarning kulminatsion nuqtasi Melisning onasi (Xonim) bilan bo‘lgan dialogi bo‘lib, u onasiga sof o‘zbek tilida gapiradi, har doim o‘rganganidek “*mamul*” deb emas, ena deb murojaat qiladi. Xonimning nafs quliga aylanganligi, o‘g‘lining jonsaraklik bilan aytgan gaplariga jahli chiqib, Amerikaga ketish qaroridan qaytmasligi, xonimning yuragi allaqachon toshga aylanganidan dalolat. Lekin o‘g‘li har qancha “*zamonaviy*” bo‘lmisin, o‘z yurtini Amerikaga hech qachon almashtirmasligini, “Daraxt ham bir joyda ko‘karadi, ena!” degan maqolning ham aynan Melis tilidan berilishida o‘ziga xos ramziylik bor.

Xulosa qilib aytganda, dramaturg asar tiliga nihoyatda ehtiyyotkorlik va e’tibor bilan yondashishi, har bir qahramonga o‘z xarakteriga mos keladigan nutq formalarini topa olishi, jonli xalq tili boyliklari, tasviriy vositalar, maqol va matallar hamda boshqa til elementlaridan o‘rinli foydalanishi lozim. Bular asarning sahnnaviy va o‘qishli chiqishini ta‘minlaydi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A‘zam E. Tanho qayiq. Kinorivoyat. // Erkin A‘zam. Tanho qayiq. Kinoqissalar. Sharq NMAK Bosh tahririyati, – T. 2017
2. I.Sulton Adabiyot nazariyasi, – T; O‘qituvchi, 2005.
3. Yoqubov I. “Badiiy-estetik so‘z sehri”. –T.; “Yangi asr avlod” – 2011 y.
4. Yo‘ldoshev. Q. Yoniq so‘z. –T.: Yangi asr avlod, 2006.
5. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M . Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akademnashr, 2010
6. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018.



ADABIYOT DARSLARIDA MUAMMOLI TA'LIM USULIDAN FOYDALANISH

Abibayeva Nigora Muxtorjonovna

Namangan viloyati Norin tumani
27-maktab ona tili adabiyot fani o'qituvchisi
Tel:+998 939481127

ANNOTASIYA: Ta'lim tizimida samarali natijalarga erishish uchun adabiyot fanini o'qitish usullari va darslarda muammoli ta'lim usulidan foydalananish to'g'risidagi fikrlar yuritilgan

TAYANCH SO'ZLAR: adabiyot, zamonaviy yondashuv, Talmih, Intoq, Tardu, Tazod, muammoli vaziyat, she'riyat qoidalari

Mamlakatimizda pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonini modernizatsiyalash, sohadagi zamonaviy rivojlanish tendentsiyalari, ilg'or xorijiy tajribalar va innovatsion yondashuvlar asosida ta'lim mazmuni va o'qitish sifatini takomillashtirish muhimligi sababli u davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim maktebalarining uzluksiz rivojlanishi uchun iqtisodiy, siyosiy, huquqiy shart-sharoit yaratildi. Jumladan, hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qator me'yoriy hujjatlarda o'qitishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish sohasida qator tadbirlar boshlab qo'yilgan.

Shuni hisobga olgan holda O'zbekiston Prezidenti SH.M.Mirziyoyev quyidagilarni ta'kidlaydi: "Maktab o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o'quv yuklamalari va fanlarni qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarur..... Mamlakatimiz uchun ilm-fan sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni aniq belgilab olishimiz kerak. Hech bir davlat ilm-fanning barcha sohalarini bir yo'la taraqqiy ettira olmaydi. Shuning uchun biz ham har yili ilm-fanning bir nechta ustuvor yo'nalishini rivojlanishiga tarafborimiz. Joriy yilda matematika, fizika, kimyo-biologiya, geologiya kabi yo'nalishlarda fundamental va amaliy tadqiqotlar faollashtirilib, olimlarga barcha shart-sharoitlar yaratib beriladi. Shuningdek, ilm-fan sohasida fundamental va innovatsion tadqiqotlar uchun maqsadli grant mablag'larini ajratish mexanizmini tubdan qayta ko'rib chiqish kerak."

Ta'lim olish jarayonida adabiyot fanini san'at darajasida o'rganish uchun badiiy mahorat masalalarini kengroq tushunish va badiiy asarlarni chuqurroq tahlil etish zarur. Badiiy asar tahlili juda katta mahorat va bilim talab etadi. Shu o'rinda biz she'riy asarlarni tahlili xususida so'z yuritmoqchimiz. Maktab darsliklarida she'riyat qoidalari bilan birgalikda she'riy san'atlar ham o'rganiladi. Buning natijasida o'quvchi so'z sana'tining mohiyatini anglaydi, suratni emas siyratni ko'ra oladi, asarning salmog'ini his qiladi va g'oyaviy mazmunni tushuna oladi. Shu tufayli darslarning qiziqarli va jonli o'tishini nazarga olib quyidagi ta'lim usulidan foydalangan holda tavsiyalar berishga harakat qilmoqchiman. Ya'ni darsda zamonaviy yondoshuv PBL asosida ham muammoli ta'lim usulidan foydalananish mumkin. P-problem-muommo, B-based-asoslangan, L-learningo'rganish. Demak, muammoli vaziyatlarni muhokama tarzida o'rganish. O'quvchilarga she'riy san'atlar qoidasi o'rgatiladi: Tazod, tashxis, talmih, intoq, husni ta'lil, tardu aks, tajohuli orif, tamsil va xakazo. Masalan, Tazod-qarshilantirish ma'nosini bildiradi, ya'ni she'rda qaramaqarshi ma'noli so'zlarni eltirish orqali ta'sirchan badiiy timsollar yaratiladi. Masalan: Tashxis-jonlantirish: hayvonlar, qushlar, jonsiz narsalarga inson xusu siyatlarini ko'chirish san'atidir. Masalan, Lutfiyning Yuzidin lola rang eltilib uyolib shahrga kirmas, Kishikim bo'ynidin bog'lab keturmoguncha sahrodin Baytda lolaga insoniy xususiyatlarni ko'chirish holatini ko'ramiz. Talmih-nazar solmoq ma'nosini bildiradi, she'r yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, adabiy asarlarni yoki maqollarga ishora qilish san'atidir.

Senga bersun ilohi Nuh umrin,

Manga ham Furqatingda sabri Ayub.

Atoying bu baytida Nuh va Ayub payg'ambarlarga ishora qilingan. O'quvchilar uchun ushbu ishora qilingan payg'ambarlarimiz, qahramonlar, farishtalar, voqealar, mashhur asarlar haqidagi ma'lumotlar ham g'oyatda qiziqarlidir.

Intoq-so'zlatish, gapirtirish (nutqlantirish) ma'nosini ifodalaydi. Ya'ni badiiy asarda hayvonlar yoki jonsiz narsalarni odamlarga o'xshatib so'zlatish nazarda tutilgan. Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida tovusning so'zi. Men qusheman qasru gulshan ziynati, Naqshu rangim ahli olam hayrati. Tardu aks-teskari qilib takrorlash. Birinchi misrada kelgan so'z yoki so'z



birikmalari keyingi misrada o‘rnini almashtirib qaytarish. Masalan, Bobur bayti:

Ko‘ngulga bo‘ldi ajoyib balo qaro soching,
Shikasta ko‘ngluma ermish qaro balo soching.

O‘quvchilarga muommoli masala yuklanadi. Buni mumtoz asarlarimizni o‘rganish jarayonida amalga oshirsak maqsadga muvofiq. Masalan, adabiyot darsida Lutfiy, Navoiy, Fuzuliy, Ogahiy, Nodira, Uvaysiy Atoyi kabi shoirlar she’rlarini badiiy tahlil qilish jarayonida qo‘llashimiz mumkin.

G‘azallardagi badiiy tasvirlarga e’tibor bering,

Kim ko‘p she’riy san’at turini aniqlay oladi?

Bu muommo guruhgaga yoki yakka o‘quvchiga yuklanishi mumkin, jarayon davomida o‘quvchi olgan nazari bilimini amalda qo‘llashga harakat qiladi.

Birinchidan berilgan she’rni qayta-qayta o‘qiydi, natijada mazmunni anglaydi! Ikkinchidan o‘quvchi diqqatini jamlaydi va bir muommoning ustida bosh qotiradi, natijada yechim topa oladi, bundan o‘ziga ishonch tuyg‘usi ortadi. Uchinchidan, she’riyat qoidalarini nazariy ma’lumotlarni mustahkam o‘rganib oladi, natijada shakl va mazmun mohiyatini farqlay oladi. Sababi: she’riy san’atlar yoki so‘z shakli bilan yoki mazmuni bilan bog‘liqdir. To‘rtinchidan, ijodkorlikka ishtiyoq uyg‘onadi, ya’ni qiziqish natijasida o‘zi ham qayta shunaqa bayt yoki she’r yozishi mumkin. Beshinchidan, Ma’lum muommoli vaziyatlar, aslida murakkab emasligini, vaziyat yechimini topa olishni o‘rganadilar.

Darslarda muommoli vaziyatlarni muhokama tarzida o‘rganish o‘qituvchini maqsad sari oson olib boradi, o‘quvchida mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantiradi. Biz ustozlar o‘quvchiga tayyor tahlillarni bersak, san’atlarini ham aytib birma-bir tahlil qilib bera olamiz, lekin o‘quvchining ongida bu vaqtincha saqlanadi. O‘zi qachonki, shu san’at turlarini topib ololsagina, bu hech qachon esidan chiqmaydigan qat’i y bilim bo‘ladi.

Xulosa shuki, mohir pedagoglar darsni san’at darajasida o‘tadilar. Muommoli ta’lim usulidan barcha fanlarni o‘qitishda foydalanish mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.Hojiahmedov. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. T-1998
2. Q.Yo‘ldoshev Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: O‘qituvchi, 1996. – 151 b

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 8-ҚИСМ

**Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзисв**

Эълон қилиш муддати: 30.06.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000